



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ADABIYOTGA BO'LGAN QIZIQISHINI ORTTIRISH

Meretgeldieva Aygul

NDPI, Boshlang'ich ta'lim fakulteti

3-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7830590>

ARTICLE INFO

Received: 04th April 2023

Accepted: 14th April 2023

Online: 15th April 2023

KEY WORDS

Har tomonlama yetuk pedagog, badiiy asar va uni tahlil qilish, darsliklar, tarbiya, bilim, taqlid qilish, adabiy ko'rnishdagi tahlil.

ABSTRACT

Ushbu maqolada shu bayon qilinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilimli va tarbiyali qilib o'stirishda sinf rahbarining o'rni, o'qituvchining har tomonlama rivojlangan bo'lishi va uni bolalarga ta'sirini o'tkaza olishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini adabiyotga qiziqtirish va uni badiiy estetik tafakkur tarbiyasi bilan urug'lantirish hamda o'quvchilarda estetik zavqni uyg'ota olish kabi jarayonlar ko'rsatiladi.

Boshlang'ich sinf deganda hammamizning ko'z oldimizga bolaligimiz esimizga tushadi. O'ynab-kulib yurgan vaqtlarimiz, onamizning aytganlarini qilmay ustozimizning so'zlarini yerda qo'ldirmasdan bajarishlarimiz- bu onlar hammamizning boshimizdan o'tgan albatda. Mana shu ondan kelajakning poydevori boshlanadi. Bu poydevor mustahkam bo'lsa, u turli to'siqlarga chiday oladi.

Bu poydevorni shakillantirishda o'zining ulkan hissasi bo'lgan o'qituvchi avvalo, bilim va tarbiyani o'zida jipslashtirgan bo'lmog'i kerak. Zero, o'quvchini ko'rganda, ustozni esga tushgudek tarbiyalanishi zarur. Bo'lajak pedagogning ya'ni o'qituvchining tarbiyasi bilimida a'lo bo'lsa u doim shubhasiz hurmatdadir. Avvaldan kelayotgan bir gap bor: "Har qanday tarbiya avval tarbiyachini tarbiyalashdan boshlashi kerak". Bunda aytiladiki, tarbiya berguvchi har bir odam avvalo, o'zini tarbiyalab olmog'i maqsadga muvofiqdir. O'zini hurmat qilgan, doimo adolatli, go'zal xulqli, teran so'zli o'qituvchi albatda ishida muvofiqiyatga erishadi. Shu bilan birga o'zidagi bilimlarini ham har tomonlama qiziqtirib bera olsa nur ustiga a'lo nurdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq taqlid qiladi. Bolalar nazarida o'qish ko'r-ko'rona ijrochilik, o'qituvchisiga taqlid, ustozni aytganlarini takrorlashdan iboratday tuyiladi. Shuning uchun sinf rahbari fidoyi ustoz bo'lib, bilimni bersa o'quvchi ham fidoiylkda o'qituvchining bergan bilimni shu darajada o'zlashtira oladi. Bu albatda o'qituvchiga bog'liq. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi darsda masalani to'g'ri qo'ya bilish, o'quvchini qiziqтира olish, uning tuyg'ularini bezovta qila bilishdan iborat. Shu sababdan ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining javobgarlik hissi judayam katta bo'ladi. Bu javobgarlik hissini doim yelkasida ko'tarib yuradigan o'qituvchi eng a'lo darajadagi o'qituvchidir. O'qituvchi bolalarning o'z fikrini qo'rqmasdan ayta oladigan qilib tarbiyalab borishi uning jamiyat hayotida o'z o'rnini osongina topishga yordam beradi. Inson ichida erkin "men"i mustaqil fikri bo'lgandagina o'z so'zini aytadi. Ya'ni ustozning o'quvchisiga ruhlantiruvchi so'zlari bilan



ilhomlantirib yuborsa, bolada "men qila olaman, bajara olaman, men yetisha olaman" degan so'zlarini doimo ayta olsa demak, u o'ziga ishongan buyuk inson bo'la oladi. Sinf rahbari har bir mavzuni tushuntirib borar ekan, uni o'quvchi tushunishga va u haqda fikrlashga harakat qilib boradi. Bola o'z bilimi va tajribasida ko'rilmagan vaziyat bilan to'qnashganda hamda bu vaziyat uni qiziqtirib qolganda g'ayriixtiyoriy ravishda mustaqil fikrlay boshlaydi. Kichik o'quvchilar ma'naviyatini sog'lomlashtirishda o'qish darslarining, boshlang'ich sinfda adabiy ta'limning o'rni beqiyos. O'qituvchi tomonidan o'qish kitobidagi asarlarni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan o'quvchi mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, o'zi va boshqalarning tuyg'ular olamini kuzatishga, o'zgani tuyishga o'rgana boradi. Boshlang'ich sinflarda adabiyotga chuqur qiziqtirish uning dunyoqarashini umumiy ravishda belgilab beradi. O'quvchilar bu darslarda badiiy adabiyot olamiga kiradilar. Shu jarayonda o'quvchilarni badiiy asarni tahlil qilishga o'rgatish juda muhim metodik vazifadir. Chunki o'quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g'oya, muammolarni to'liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy-estetik tafakkur tarbiyasi bilan bog'liq adabiy tushunchalarni shakllantirish tizimini metodik jihatdan takomillashtirish masalasi dolzarblik kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda adabiy tushunchalarni o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi adabiyot nazariyasidan ilmiy tushunchalarga ega bo'lishi, asar tahlilida nimalarga e'tibor berilishini ajratib olishi, o'qitish usullarini yaxshi bilishi, tahlilga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi o'qish darslarida badiiy asarni o'qitish sifatini belgilovchi omillardandir.

Xulosa qilinadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda o'qish ta'limi o'quvchilarning savodxonligi, kitobxonlik malakasini shakllantirish va shu orqali ma'naviyaxloqiy tarbiyasiga xizmat qilishdek birdan-bir vazifasini bajarishda adabiy tushunchalarga tayanadi. Shunga ko'ra, adabiy tushunchalar nafaqat nazariy ahamiyat kasb etadi, balki juda muhim amaliy mohiyatga ham egadir. Ayniqsa, badiiy asar mavzusi va g'oyasi, syujeti va kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi va badiiy til xususiyatlarini adabiy tushunchalar vositasida aniqlash o'quvchilarning tahliliy ko'nikma-malakalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Zero, tahlil o'qituvchi uchun o'quvchilar bilan muloqot qilishning, ularning badiiy asarni tushunish hamda idrok qilish qobiliyatlari va dunyoqarashlarini shakllantirishning muhim omilidir. Shu bois, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning adabiy tushunchalarini shakllantirish ta'limda izchillik va tizimlilik tamoyiliga qat'iy amal qilishni taqozo etadi. Negaki adabiy tushunchalar ko'proq nazariy xarakterda bo'lib, amaliyot bilan chambarchas bog'liqlikda mustahkamlanadi.

References:

1. Qunduzxon Husanboyeva, Ro'za Niyozmetova "Adabiyot o'qitish metodikasi" kitobi. Toshkent-2018
2. Muhabbat Jumaniyazova, Sabohat Tojiddinova "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy tushunchalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari" maqolasi
3. www.org.uz